

SAMARQAND VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



Samarqand viloyatida kichik tadbirkorlik




2022- yil yanvar-dekabr

Dastlabki ma'lumotlar



Samarqand viloyatida kichik tadbirkorlik

1-yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni bo'yicha dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz), ming birlikda




Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

2023- yilning 1 yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **47,9** mingtani tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan **7,2** mingtaga ko'paygan yoki **17,7 %** ga oshgan - Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **11,6** birlikni tashkil qildi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

2022- yilning yanvar – dekabr oylarida **10,6** mingta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **1,9 %** ga kam demakdir.

2023- yilning 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng yuqori ulushga ega bo'lgan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni va ulushi, birlikda



Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar


Hududlar bo'yicha 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda



2023- yil 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni jami **47 943** tani, shundan yangi tashkil etilganlari **10 613** tani tashkil etdi


2023- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'pi Samarqand shahrida **13 775** tani yoki jamiga nisbatan **28,7 %** ni tashkil etdi.

1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda



Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Samarqand viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda



2022- yilda faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbatan **11,6** birlikni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2021- yilga nisbatan **14,8** birlikka oshgan.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlari sonining **har 1000 aholiga** nisbati eng yuqori ko'rsatkich Samarqand shahrida **24,0** birlik, Kattaqo'rg'on shahrida **16,4** birlik, Samarqand tumanida **13,3** birlik, Oqdaryo tumanida **12,2** birlik, Pastdarg'om tumanida **10,8** birlikka yetdi.

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda)*

Samarqand sh.	24,0
Kattaqo'rg'on sh.	16,4
Samarqand	13,3
Oqdaryo	12,2
Pastdarg'om	10,8
Jomboy	10,5
Bulung'ur	10,2
Toyloq	9,7
Ishtixon	9,6
Nurobod	9,5
Payariq	9,3
Kattaqo'rg'on	8,5
Paxtachi	8,0
Urgut	7,7
Qo'shrabot	7,4
Narpay	6,6

* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda

2021- y.		2022- y.
2 734	Samarqand sh.	2 605
301	Kattaqo'rg'on sh.	310
601	Oqdaryo	537
421	Bulung'ur	505
440	Jomboy	455
656	Ishtixon	660
563	Kattaqo'rg'on	558
224	Qo'shrabot	244
310	Narpay	318
564	Payariq	535
1 065	Pastdarg'om	919
313	Paxtachi	293
860	Samarqand	870
408	Nurobod	411
886	Urgut	892
468	Toyloq	501

2022- yilda yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, % da

Samarqand sh.	24,5
Pastdarg'om	8,7
Urgut	8,4
Samarqand	8,2
Ishtixon	6,2
Kattaqo'rg'on	5,3
Oqdaryo	5,1
Payariq	5,0
Bulung'ur	4,8
Toyloq	4,7
Jomboy	4,3
Nurobod	3,9
Narpay	3,0
Kattaqo'rg'on sh.	2,9
Paxtachi	2,8
Qo'shrabot	2,2


2022- yilda hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Samarqand shahrida – **24,5 %**, Urgut tumani – **8,4 %**, Samarqand tumani – **8,2 %**, Pastdarg'om tumani – **8,7 %**, Ishtixon tumani – **6,2 %**, Kattaqo'rg'on tuman – **5,3 %**, Oqdaryo – **5,1 %** hissalariga to'g'ri keldi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

2021-2022- yillarda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, *birlikda*



Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, *birlikda*




2022- yilda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdo sohasida **5 087** ta, sanoatda **1 641** ta hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar **1 100** ta yangidan tashkil etilgan.


Viloyatning tuman va shaharlari kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar Samarqand shahrida **2 605** ta, Pastdarg'om tumanida **919** ta hamda Urgut tumanida **892** ta yangidan tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2018-2022 yillarda yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, *birlik*




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida 2018-2022 yillar davomida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, *birlik*



So'ngi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlarini qo'llab quvvatlash hamda ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilash bo'yicha qabul qilingan qaror va farmonlari, shuningdek bu sohaga berayotgan katta e'tiborlari natijasida 2018-2022 yillar davomida jami **42 377** ta kichik korxonalar va mikrofirma yangidan tashkil etildi. Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar sohalar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p yangi subyektlar savdo sohasida - **17 585** (yoki **41,5 %**) ta, xizmatlar sohasida - **9 768** ta (yoki **23,1 %**), sanoat sohasida - **8 112** ta (yoki **19,1 %**), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida - **4 458** ta (yoki **10,5 %**) va qurilish sohasida - **2 454** ta (yoki **5,8 %**)ni tashkil etilgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi, % da




2017- y. 2018- y. 2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y.


2022- yilda YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **71,4 %** ni tashkil qilib, 2021- yilga nisbatan **3,6** punktga kamaygan. Kamayishining asosiy sababi, yirik tadbirkorlik subyektlarida qo'shilgan qiymat hajmining oshishi bilan ifodalanadi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarida sanoat faoliyati

Hajmi, mlrd so'mda




Ulushi, % da




2017- y. 2018- y. 2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarida qurilish faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarida investitsiya faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari


Kichik tadbirkorlik subyektlarida qishloq xo'jaligi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdodagi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko'rsatishdagi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati

2022- yilda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm

Samarqand sh.	2810,1
Urgut	1439,9
Samarqand	1294,3
Jomboy	1200,7
Bulung'ur	691,8
Toyloq	668,7
Oqdaryo	563,3
Kattaqo'rg'on	512,8
Pastdarg'om	494,7
Kattaqo'rg'on sh.	406,8
Payariq	366,0
Ishtixon	216,9
Paxtachi	185,6
Nurobod	154,6
Narpay	128,9
Qo'shrabot	127,1

2022- yilda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **11 262,1** milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Samarqand shahri (**2 810,1** mlrd. so'm), Urgut (**1 439,9** mlrd. so'm), Samarqand (**1 294,3** mlrd. so'm), Jomboy (**1 200,7** mlrd. so'm) va Bulung'ur (**691,8** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi. Qo'shrabot tumanida (**127,1** mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlar hajmida eng yuqori ulushga ega hududlar, % da


Samarqand sh.	25,0
Urgut	12,8
Samarqand	11,5
Jomboy	10,7
Bulung'ur	6,1

Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati

2017-2022- yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi ulushi dinamikasi, % da



2022- yilda hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da




2022- yilda sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **38,3 %** ni tashkil etdi.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Qo'shrabot tumani (**100,0 %**), Bulung'ur tumani (**99,5 %**), Kattaqo'rg'on sh. (**96,2 %**), Oqdaryo tumani (**90,9 %**), Kattaqo'rg'on tumani (**79,1 %**), Urgut tumani (**69,2 %**), Samarqand tumani (**62,6 %**), Payariq tumani (**59,0 %**), Pastdarg'om (**47,2 %**) va Jomboy (**38,6 %**) tumanlari tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish faoliyati

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm) va ulushi



2017-2022 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi ulushi dinamikasi, % da




2017- y. 2018- y. 2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y.

2022- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **6 916,2** milliard so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **78,9 %** ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2021- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **116,9 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Samarqand shahri (**2 440,2** mlrd. so'm), Oqdaryo (**638,2** mlrd. so'm), Payariq (**533,5** mlrd. so'm), Urgut (**384,3** mlrd. so'm), Ishtixon (**347,4** mlrd. so'm), Jomboy (**360,2** mlrd. so'm) hamda Toyloq (**321,6** mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

2018-2022 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmining o'zgarish dinamikasi, trln so'mda




2018- y. 2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y.

■ hajmi - foizi

Kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya faoliyati


2017-2022 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmining o'zgarish dinamikasi, trln. so'mda




2022- yilda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi **10 449,8** milliard so'mni yoki jami investitsiya hajmining **47,6 %** ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2021- yilga nisbatan **119,5 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi Samarqand shahri (**4 063,5** mlrd. so'm), Samarqand (**1 045,0** mlrd. so'm), Urgut (**752,4** mlrd. so'm), Qo'shrabot (**543,4** mlrd. so'm), Pastdarg'om (**459,8** mlrd. so'm), Toyloq (**438,9** mlrd. so'm) hamda Paxtachi (**407,5** mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

2017-2022- yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiyadagi ulushi dinamikasi, % da




2022 yilda kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmi (mlrd so'm) va ulushi



■ hajmi — foizi

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligi faoliyati

2017-2022 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligi hajmining o'zgarish dinamikasi, trln. so'mda



2022- yilda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi **41 249,8** mlrd. so'mni yoki jami qishloq xo'jaligi mahsuloti hajmining **93,9** % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2021- yilga nisbatan **102,3** % ni tashkil qildi.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi Narpay (**5 218,5** mlrd. so'm), Urgut (**4 705,7** mlrd. so'm), Jomboy (**4 327,4** mlrd. so'm), Kattaqo'rg'on (**3 585,3** mlrd. so'm), Payariq (**3 896,3** mlrd. so'm), Pastdarg'om (**3 518,7** mlrd. so'm) hamda Qo'shrabot (**2 285,5** mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

2017-2022 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligidagi ulushi dinamikasi, % da




2017- y. 2018- y. 2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y.

2022- yilda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi va ulushi



Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo faoliyati

2017-2022- yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmining o'zgarish dinamikasi, trln. so'mda




2017-y. 2018-y. 2019-y. 2020-y. 2021-y. 2022-y.

2022- yilda kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **21 804,4** mlrd. so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **80,1 %** ini tashkil etib, o'sish sur'ati 2021- yilga nisbatan **112,2 %** ni tashkil qildi.

2022- yilda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdo tovar aylanmasi, mlrd. so'm

Samarqand sh.	6 219,6
Toyloq	2 714,6
Kattaqo'rg'on sh.	1 590,1
Pastdarg'om	1 390,8
Samarqand	1 318,5
Kattaqo'rg'on	1 106,7
Bulung'ur	1 050,1
Payariq	959,6
Jomboy	896,4
Ishtixon	862,4
Urgut	829,9
Narpay	798,7
Oqdaryo	651,7
Paxtachi	513,3
Qo'shrabot	457,1
Nurobod	444,9

2017-2022 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo aylanmasidagi ulushi dinamikasi, % da




2017-y. 2018-y. 2019-y. 2020-y. 2021-y. 2022-y.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Samarqand shahri (**6 219,6** mlrd. so'm), Kattaqo'rg'on shahar (**1 590,1** mlrd. so'm), Toyloq (**2 714,6** mlrd. so'm), Pastdarg'om (**1 390,8** mlrd. so'm), Samarqand (**1 318,5** mlrd. so'm), Kattaqo'rg'on (**1 106,7** mlrd. so'm) va Bulung'ur (**1 050,1** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatish faoliyati

2017-2022 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining
Ko'rsatilgan xizmatlar hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2022- yilning yanvar-dekabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida
xizmat ko'rsatishi hajmi, mlrd. so'mda




2022- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 15 458,4 mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatildi yoki ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining 68,0 % ini tashkil qildi va o'sish sur'ati 2021- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 113,1 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p xizmatlar hajmi Samarqand shahri (4700,9 mlrd. so'm), Samarqand (1369,5 mlrd. so'm), Urgut (1194,3 mlrd. so'm), Pastdarg'om (1111,9 mlrd. so'm), Jomboy (824,9 mlrd. so'm), Toyloq (788,4 mlrd. so'm) va Kattaqo'rg'on (749,3 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati

Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

Hajmi, mln. AQSH dol.




Ulushi, %da




Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

Hajmi, mln. AQSH dol.



Ulushi, % da




2017-2022- yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarning mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2017- y. 2018- y. 2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y.

2022- yilda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining hajmi (mln AQSH dollar) va ulushi, % da




2022- yilda kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi **318,6** million AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining **48,6 %** ini tashkil etdi.

2022- yilda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Kattaqo'rg'on shahrida – **100,0 %**, Qo'shrabot hamda Kattaqo'rg'on tumanlarida – **100,0 %**, Payariq tumanida – **89,1 %**, Oqdaryo tumanida – **82,2 %**, Urgut tumanida – **78,7 %**, Narpay tumanida – **64,4 %**, Samarqand tumanida **53,3 %** va Ishtixon tumanida – **48,6 %**, eng past ko'rsatkich Nurobod tumanida – **4,5 %** ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2017-2022 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarning mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi hajmidagi ulushi dinamikasi, %da




2022- yilda kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **643,2** million AQSH dollarini yoki jami importning **37,2** % ini tashkil etdi.

2022- yilda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi hajmi, mln AQSH dollarda

2022- yilda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori hajm Samarqand shahri- (215,8 mln AQSH dollar), Urgut- (108,6 mln AQSH dollar), Jomboy- (80,1 mln AQSH dollar), Samarqand- (63,4 mln AQSH dollar), Toyloq- (50,0 mln AQSH dollar), Pastdarg'om- (28,4 mln AQSH dollar) tumanlarida tashkil etdi.


Samarqand sh.	215,8
Urgut	108,6
Jomboy	80,1
Samarqand	63,4
Toyloq	50,0
Pastdarg'om	28,4
Kattaqo'rg'on	22,2
Oqdaryo	18,0
Nurobod	13,3
Kattaqo'rg'on sh.	11,0
Ishtixon	8,3
Bulung'ur	6,7
Paxtachi	5,1
Payariq	4,7
Qo'shrabot	4,7
Narpay	3,0

Kichik tadbirkorlik subyektlarining transport faoliyati




Yuk
tashishda

2022- yilda avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **89,1 %** ni tashkil etdi. 2021- yilga nisbatan o‘shish sur‘ati **104,7 %** ni tashkil qildi.




Yuk
aylanmasida

2022- yilda, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **88,9 %** ni tashkil etgan bo‘lib, 2021- yilga nisbatan o‘shish sur‘ati **107,8 %** ni tashkil qildi.



Yo‘lovchi
tashishda

2022- yilda, avtomobil transportida yo‘lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **95,6%** ni tashkil etib, 2021- yilga nisbatan o‘shish sur‘ati **103,2%** ni tashkil qildi.




Yo‘lovchi
aylanmasida

2022- yilda, avtomobil transporti yo‘lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **96,0 %** ni tashkil etib, 2021- yilga nisbatan o‘shish sur‘ati **103,2 %** ni tashkil qildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2022- yil IV chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, birlikda




2022- yil IV chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxonalar va mikrofirmalar o'rtasida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.

Ushbu so'rovnomada **1 774** ta kichik korxonalar va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning **767 (43,2 %)** tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. **865 (48,8 %)** ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan **142 (8,0%)** ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) savdoda – **41,3 % (732 ta)**, xizmatlar sohasida – **28,4 % (504 ta)**, sanoatda – **17,9 % (317 ta)**, qurilishda – **7,8 % (138 ta)**, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **4,6 % (83 ta)**ni tashkil etdi.

2022- yil IV chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi



Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari


2022- yil IV chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Samarqand shahri (526 ta), Urgut (132 ta), Samarqand (153 ta), Pastdarg'om (125 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2022- yilning IV choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2022- yilning IV choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdoda – **46,9** %ni, xizmatlar sohasida – **42,7** % ni, sanoatda – **42,8** % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **55,2** % ni, xizmatlar sohasida – **55,1** % ni, qurilishda – **54,9** % ni, sanoatda – **53,7** % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qurilishda – **9,5** % ni, sanoatda – **9,0** % ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **7,5** % ni tashkil etdi.

2022- yilning IV choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



2022- yilning IV choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning **yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli** bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdoda – **44,0 %** ni, sanoatda – **17,2 %** ni, xizmatlar sohasida – **27,1 %** ni tashkil etdi.

Shuningdek, **yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli** bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalar eng ko'p ulushi savdoda – **39,4 %** ni, xizmatlar sohasida – **30,9 %** ni, sanoatda – **17,6 %** ni tashkil etdi.

Yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalar eng ko'p ulushi savdoda – **33,3 %** ni, sanoatda – **24,6 %** ni, xizmatlar sohasida – **21,1 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2022- yilning IV choragida biznesga ishonch muhitini baholash, % da


	O'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	Kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	50,4	37,5	12,1
Band bo'lganlar soni	29,5	62,4	8,1
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	42,8	50,9	6,3
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	32,6	60,5	6,9
Raqobat muhiti	46,0	50,2	3,9

	Yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	53,4	40,2	6,3
Band bo'lganlar soni	34,5	60,4	5,1
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	42,1	52,7	5,2
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	34,7	59,5	5,8
Raqobat muhiti	45,4	51,2	3,4


* Faqat raqobat muhitiga tegishli

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2022- yilning IV choragida biznesga ishonch muhitini baholash, o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar, % da



2022- yilning IV choragida biznesga ishonch muhitini baholash, yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli, % da



* Faqat raqobat muhitiga tegishli